YOSHLARNI BIZNESGA JALB ETISH ORQALI RASMIY BANDLIKKA ERISHISH IMKONIYATLARI

Farhod Bagibekovich Xalimbetov
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
To'rtko'l fakulteti assistenti

Annotatsiya: *Yoshlar bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion rivojlanish sharoitida, yoshlarning bandligini erishish uchun professional munosabatlarni shakllantirish maqsadida biznes ko'nikmalari bilan ta'minlash zarurdir. Ushbu jarayon yoshlarni biznes ko'nikmalari bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik g'oyalarini amalga oshirishda yordam berish va rasmiy bandlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu maqolada, O'zbekistonda yoshlarni biznesga jalb qilish uchun davlat tomonidan ko'plab chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bu chora-tadbirlar ichida imtiyozli dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlar yoshlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish va ularni rasmiy ish bilan band bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, yoshlarni biznesga jalb etish orqali norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tishni ta'minlash, mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu, yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishda muhimdir.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion, professional, rasmiy bandlik, biznes, mehnat bozori, talab, taklif, mulk, akselerator*

Yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish imkoniyatlari mavzusi, bugungi kunda har bir mamlakat uchun dolzarb masala hisoblanadi. Yosh avlodning iqtisodiy faoliyatga jalb etilishi, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Albatta, sizga raqobat siyosati kerak, xususiylashtirish ham. Men O'zbekiston bo'yicha ekspert emasman, lekin innovatsiyalar paydo bo'lishi uchun birinchi navbatda raqobat muhiti kerak. E'tiborimni tortgani O'zbekistonda yoshlar ko'p, demak investitsiyani ta'limga ko'proq qilish kerak deydi Nobel mukofoti sovrindori Fransiyalik iqtisodchi Jan Tirol[1]

O'zbekiston yoshlarining iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-

[1] https://kun.uz/kr/news/2024/10/15/

quvvatlash, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. [2]

Yoshlarni biznesga jalb etish, ularning innovatsion g‘oyalarini amalga oshirishga yordam berish va rasmiy bandlikni ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar orqali yoshlar o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiyotning turli sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati orqali yoshlar nafaqat moliyaviy mustaqillikka erishadilar, balki jamiyatda ijtimoiy mas’uliyatni ham his qilishadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish imkoniyatlari va bu jarayonda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Bunda ta’lim, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va innovatsion yondashuvlar kabi muhim jihatlar alohida e‘tiborga olinadi.

Tadbirkorlik faoliyati - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. [3]

Yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish imkoniyatlari O‘zbekistonda muhim ijtimoiy-iqtisodiy masala hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda bir qator chora-tadbirlar va dasturlar ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash maqsadida “Yoshlar bandligi dasturi” doirasida turli tadbirlar o‘tkazilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida yoshlarning kasbiy mahoratini oshirish va ularni talab yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.[4]

Yoshlarni biznes ko‘nikmalari bilan ta'minlash uchun biznes akseleratorlar tashkil etish orqali tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu, o‘z navbatida, yoshlarning ish bilan ta’minlanish imkoniyatlarini oshiradi.

Yoshlarni biznes ko‘nikmalari bilan ta’minlash O‘zbekistonda muhim ijtimoiy va iqtisodiy masala hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarning iqtisodiy mustaqilliklarini ta’minlash, bandlikni oshirish va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni o‘z ichiga oladi.

Talim va o‘qitish: Yoshlarga beriladigan iqtisodiy bilimlar maktabdan boshlanadi. Aynan maktabda boshlang‘ich biznes ko‘nikmalarining asosini mustahkamlab olishimiz kerak. Maktab ma’lumoti bilan cheklanib qolganlar uchun ham bu juda muhim hamda keyingi ta’limda o‘qishni davom ettiruvchi yoshlarimiz

[2] https://gov.uz/oz/advice/NaN/document/2634
[3] D.R. Rustamova Biznes huquqi. Toshkent 2023

[4] https://lex.uz/ru/docs/-6600413

uchun tayanch bo‘lib qoladi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarda biznes ko‘nikmalarini hosil qilishda turli seminar va tadbirlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Innovatsiya va moliya: Innovatsiyalar iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ta’siri ko‘plab sohalarda sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish imkoniyatlariga innovatsion yondashuv O‘zbekistonda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ularning ish bilan ta’minlanishini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan.

Yoshlarimizning biznes g‘oyalari ko‘p, aynan ular uchun tadbirkorligini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari amalga oshirilmoqda. Ammo ko‘pchilikda imkoniyatlardan foydalanish yoki loyiha va amaliy ishlarda tavakkalchilikka kuch, g’ayrat yetishmayapti. Ushbu masalalarda mahalla jamoatchiligida hamfikrlilik juda muhim. Mana shu yoshlarimizni biznes borasida innovatsion va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqishimiz kerak. Bu doim ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar kabi maqsadli faoliyat talab qiladi.

Yoshlarni tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishda zamonaviy marketing texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu, yoshlarning biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirishda yordam beradi. Tijorat banklari yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar taqdim etmoqda. Bu kabi moliyaviy yordamlar haqida tushuntirishlarni doimiy ravishda yoshlarimizga yetkazib borishimiz kerak. Shuningdek biznesning rasmiy tarzda tashkil qilinishi va yuritilishi ular uchun imkoniyatlar eshigi ekanligini ham aytib o‘tish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish uchun innovatsion yondashuvlar mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, moliyaviy resurslar ajratiladi va imkoniyatlardan kelib chiqib yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa nafaqat bandlikni oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotini ko‘taradi sog‘lom raqobatni keltirib chiqaradi.

Yoshlarni biznesga jalb etish orqali rasmiy bandlikka erishish imkoniyatlarini ilmiy tadqiqotlar orqali ishlab chiqish O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga ham rasmiy bandlikka erishishga ham o‘z hissani qo‘shadi. Bu mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ham oshiradi. Ushbu tashabbuslar yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi va ularni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan manbalar:

[1] https://kun.uz/kr/news/2024/10/15/
[2] https://gov.uz/oz/advice/NaN/document/2634
[3] D.R. Rustamova Biznes huquqi. Toshkent 2023
[4] https://lex.uz/ru/docs/-6600413

